XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHI
QAROR

210300, Zarafshon sh., Marvarid ko‘chasi 1

2023 - yil 30 - oktabr VI-69-150-5-78-K/23 Zarafshon shahar hokimligi

Muruntov shaharchasi hududidagi nomsiz mavzelar, ko‘chalarni nomlash va shahar hududidagi qabristonni qayta nomlash to‘g‘risida

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 14-apreldagi 08-02734-sonli ekspert xulosasini ko‘rib chiqib, Tomdi tumani hokimining 2023-yil 30-maydagi 01-14/314-sonli, Konimex tumani hokimining 2023-yil 1-iyundagi 01-06/575-sonli xatlari hamda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asoslanib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 14-apreldagi yig‘ilish bayoni hamda 2023-yil 14-apreldagi 08-02734-sonli ekspert xulosasi ma’qullansin.

2. Zarafshon shahar Muruntov shaharchasi Muruntov mahallasi hududidagi 6 ta nomsiz massiv va 6 ta nomsiz ko‘chaning nomlanishi hamda Zarafshon shahar Oltinvodiy mahallasi hududidagi 1-qabristonning qayta nomlanishi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining 2022-yil 4-martdagi VI-42-21-5-78-K/22-son qarori ilovasining 6-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Shahar statistika bo‘limi (D. Sobirova), shahar davlat xizmatlari markazi (A. Ishankulov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Zarafshon shahar filiali (R. Nosirov), shahar ichki ishlar bo‘limi (E. Yaxyoyev), shahar favqulodda vaziyatlar bo‘limi (J. Mardonov), shahar tibbiyot birlashmasi (A. Karamatov)ga qayta nomlangan qabriston, Muruntov shaharchasi hududidagi mavze va ko‘chalarning nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish vazifasi yuklatilsin.

5. Shahar obodonlashtirish boshqarmasi (A. Babayev), “Sarbon” MChJ (B. Esanov) Muruntov shaharchasi hududidagi 6 ta nomsiz massiv va 6 ta nomsiz ko‘chaning nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich

o‘rnatilishini ta’minlasin.

Bunda, qaror ijrosi yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha xarajatlar mahalliy budjet va boshqa qonun bilan taqiqlanmagan manbalar hisobidan qoplanishi belgilansin.

6. Zarafshon shahar Oltinvodiy mahallasi hududidagi 1-qabriston va Muruntov shaharchasi Muruntov mahallasi hududidagi 6 ta massiv va 6 ta ko‘chaning ro‘yxati Kengash qarori asosida Respublika Kadastr agentligining davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

7. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi “Dovg‘iztov” Fo‘O‘BO raisi (M. Farmonova) bilan birgalikda Kadastr agentligi ekspert komissiyasining xulosasiga ko‘ra Dovg‘iztov mahallasi hududidagi nomsiz ko‘chalarni nomlash to‘g‘risida taklif etilgan nomlari nomuvofiq deb topilgan obyektlar bo‘yicha 1 oylik muddatda o‘rganishlar o‘tkazib, shu hududda yashovchi aholi fikrini inobatga olgan holda qo‘shimcha takliflar kiritish topshirilsin.

8. Ushbu qaror “Oltin vodiy” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining ta`lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M. Boltayeva, sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi U. Ochilov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **N. Rahmanov**

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2023-yil 30-oktabrdagi
VI-69-150-5-78-K/23-son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Komissiya tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
Shahardagi 1-qabristonning qayta nomlanishi					
1.	qabriston	Oltinvodiy mahallasi	G‘ariblar	Abadiyat	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
Zarafshon shahar Muruntov shaharchasi Muruntov mahallasi hududidagi nomsiz massivlar va ko‘chalarning nomlanishi					
2.	mavze	Muruntov mahallasi	nomsiz (1-kvartal)	Do‘stlik	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	mavze	Muruntov mahallasi	nomsiz (2-kvartal)	Kimyogarlar	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	mavze	Muruntov mahallasi	nomsiz (3-kvartal)	Shaxtyorlar	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	mavze	Muruntov mahallasi	nomsiz (4-kvartal)	Zarqo‘rg‘on	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	mavze	Muruntov mahallasi	nomsiz (5-kvartal)	Geologlar	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	mavze	Muruntov mahallasi	nomsiz (6-kvartal)	Quyoshli	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	ko‘cha	Muruntov mahallasi	nomsiz (1-ko‘cha)	Shodlik	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9.	ko‘cha	Muruntov mahallasi	nomsiz (2-ko‘cha)	Mehnatkash	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10.	ko‘cha	Muruntov mahallasi	nomsiz (3-ko‘cha)	Obodyurt	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11.	ko‘cha	Muruntov mahallasi	nomsiz (4-ko‘cha)	Tadbirkorlar	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12.	ko‘cha	Muruntov mahallasi	nomsiz (5-ko‘cha)	Ravnaq	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13	ko‘cha	Muruntov mahallasi	nomsiz (6-ko‘cha)	Tinchlik	qonun hujjatlari talablariga muvofiq